



OZODLIKDAN MAHRUM QILISH JAZOSI TUSHUNCHASI, UNING IJROSINI TASHKIL ETISH.

Nazarov Ilxambek Alimovich

O'z Res IIV Malaka oshirish instituti katta o'qituvchisi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.20717799>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 12-iyun 2026 yil
Ma'qullandi: 14-iyun 2026 yil
Nashr qilindi: 16-iyun 2026 yil

KEYWORDS

Hozirgi kunga kelib respublikamiz Prezidenti Respublikamiz jinoyat jazoni ijro etish tizimi kecha yoki bugun shakllangan tizim emas.

ABSTRACT

Jazoni ijro etish tartibi va shartlarini tartibga soladigan huquq sohasi jinoyat-ijroiya huquqi deb ataladi va respublikamizda mustaqil huquq tarmog'i sifatida o'rganiladi. Har qanday huquq sohasi kabi jinoyat-ijroiya huquqi ijtimoiy munosabatlarning ma'lum bir guruhini tartibga soladigan normalar tizimidan iboratdir.

Ozodlikdan mahrum qilish jazosi tushunchasi. O'zbekiston Respublikasi jinoyat-ijroiya tizimida ozodlikdan mahrum qilish jazosi ijrosini tashkil etish.

Jazoni ijro etish tartibi va shartlarini tartibga soladigan huquq sohasi jinoyat-ijroiya huquqi deb ataladi va respublikamizda mustaqil huquq tarmog'i sifatida o'rganiladi. Har qanday huquq sohasi kabi jinoyat-ijroiya huquqi ijtimoiy munosabatlarning ma'lum bir guruhini tartibga soladigan normalar tizimidan iboratdir.

Hozirgi kunga kelib respublikamiz Prezidenti Respublikamiz jinoyat jazoni ijro etish tizimi kecha yoki bugun shakllangan tizim emas. Bu sohada mamlakatimizda yetarli tajriba va ko'nikmalar mavjud. Shu bilan birga xato va kamchiliklar yo'q emas. uning uchun ham jazoni ijro etish tizimi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning qisqa davri ichida nixoyasiga yetadi deyish, nazarimizda noto'g'ridir.

Bu jaraayon respublikamizda amalga oshirilayotgan sud-huquq sohasidagi islohatlar bilan bevosita bog'liq jarayon bo'lib, jinoyatchilikka qarshi kurashning umumiy ahvoli, qabul qilinayotgan qonunlarimizning sifat darajasi-yu, ularning amaldagi ijrosi ham uzviy ravishda aloqadordir.

Ixtisoslashgan davolash muassasalaridan boshqa JIEMlarida erkaklar va ayollar, voyaga yetmaganlar va katta yoshlilar, ozodlikdan mahrum etishga birinchi marta hukm qilingan shaxslar va ilgari bu jazo turini o'tagan mahkumlar alohida-alohida, shuningdek, o'ta xavfli retsdivistlar yoki umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm etilgan mahkumlar, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxs maqomiga ega mahkumlar, sud va huquq-tartibotni muhofaza qiluvchi organlarning sobiq xodimlariga mansub mahkumlar, turli yuqumli kasalliklarga chalingan mahkumlar ajratilgan holda saqlanadilar va bir joydan ikkinchi bir joyga ko'chiriladilar.

Mahkumlarni ko'chirish tartibi Jinoyat-ijroiya kodeksining 60-moddasida belgilangan bo'lib, Ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslarni jazoni ijro etuvchi bir muassasadan boshqasiga ko'chirish ushbu Kodeksning [58-moddasi](#) talablariga rioya etgan holda amalga oshiriladi.

Ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslar tergov qilinayotgan shaxslardan alohida ko'chiriladi.

Homilasi yigirma to'rt haftalikdan oshgan yoki uch yoshga to'lmagan bolasi bor ayollar boshqa mahkumlardan alohida ko'chiriladi.

Mahkum bemorlar, homilador ayollar va bolasi bor ayollar, zarurat bo'lganda, tibbiy xodimlar kuzatuvda ko'chiriladi.

Mahkumlarning xavfsizligini ta'minlash maqsadida ularni boshqa hollarda ham ajratilgan tarzda ko'chirishga yo'l qo'yiladi.

Ko'chirish chog'ida mahkumlar zarur moddiy-maishiy va sanitariya-gigiyena sharoitlari bilan ta'minlanadi, ularga mavsumiy kiyim va poyabzal, belgilangan norma bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari beriladi.

Mahkumlarni ko'chirish davlat hisobidan, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan belgilangan [tartibda](#) soqchi kuzatuvda amalga oshiriladi.

Jazoni o'tash joyiga borayotgan yoki bir jazoni ijro etish muassasasidan boshqa jazoni ijro etish muassasasiga ko'chirilayotgan mahkumlarni vaqtincha saqlash uchun jazoni ijro etish muassasalari va tergov hibsonalari huzurida tranzit-jo'natish uchastkalari tashkil etilishi mumkin. Mahkumlar tranzit-jo'natish uchastkalarida rejimining turi sud hukmi bilan belgilangan jazoni ijro etish muassasasida o'zining jazoni o'tashiga oid shartlar asosida, ushbu Kodeksning [58-moddasi](#) talablariga rioya etgan holda saqlanadi. Mahkumlarni tranzit-jo'natish uchastkalarida saqlashning eng ko'p muddati ko'pi bilan 20 sutkani tashkil etadi. (JIK 60 m.).

Muassasaga yetib kelgan mahkumlar ularning shaxsini o'rganish va sharoitga moslashib olishlari uchun o'n besh sutkagacha muddatga, odatda, qabul bo'limiga joylashtiriladi, manzil-koloniya kelgan hamda xo'jalik xizmatiga oid ishlarni bajarish uchun tergov hibsonalari va turmalarda qoldirilgan shaxslar bundan mustasno.

Muassasaga yetib kelganlaridan so'ng mahkumlarga jazoni o'tash tartibi va shartlari to'g'risida kerakli axborot beriladi, shuningdek ularning huquqlari va majburiyatlari tushuntiriladi. (JIK 56-m.).

Mahkumlarni jazoni ijro etish koloniyasiga qabul qilish paytida to'liq tintuv qilinadi va ularga tegishli buyumlar ko'zdan kechiriladi.

Mahkumlar saqlashi man etilgan narsa va buyumlar muassasa boshlig'ining qaroriga asosan olib qo'yiladi hamda mahkum ozod bo'lgunga qadar saqlash uchun omborga topshiriladi yoki yo'q qilinadi yoxud davlat foydasiga o'tkaziladi va bu haqda tegishli hujjat (dalolatnoma, kvitantsiya, qaror) tayyorlanadi.

Muassasa omboriga saqlash uchun topshirilgan buyumlarga kvitantsiya to'ldirilib, bir nusxasi mahkumning qo'liga beriladi, ikkinchisi esa mahkum ozod bo'lgunga qadar yoki boshqa muassasaga o'tkazilguncha muassasa omborida saqlanadi.

Mahkumlar saqlashi man etilgan narsa va buyumlarni davlat foydasiga o'tkazish muassasa boshlig'ining prokuror tomonidan tasdiqlangan qarori asosida amalga oshiriladi.

Jazoni ijro etish koloniyasiga qabul qilingan har bir mahkum to'g'risidagi ma'lumotlar mahumlarning harakati hisobini yuritish va mahkumlarning

shaxsiy hujjatlar yig'majildlarini qayd etish daftariga kiritib boriladi. Muassasaga kelgan har bir mahkumga armatura kartochkalari bilan shaxsiy hisobvaraqlar ochiladi, ularga belgilangan normalar bo'yicha va mavsumga qarab zarur buyumlar, ko'rpa-to'shak va choyshab beriladi.

JIEKdagi maxsus bo'lim sudlarning hukm(ajrim)lariga binoan moddiy zararni qoplash va aliment to'lashi lozim bo'lgan mahkumlar ro'yxatini tuzib buxgalteriyaga, alkogolizm va giyohvandlikdan majburiy davolanishi lozim bo'lgan shaxslarning ro'yxatini esa tibbiyot bo'limiga topshiradi.

Mahkumlar qabul bo'linmasida saqlangan vaqt mobaynida tibbiy ko'rikdan o'tkaziladi hamda ularning shaxsiyatini o'rganish maqsadida tezkor-tartibot, tarbiyaviy va ishlab chiqarish xizmatlari xodimlarining suhbatidan o'tadi va shundan keyingina komissiya tomonidan turkumlarga taqsimlanib, ishchi brigadalarga kiritiladi. Manzil-koloniyalarda jazoni o'tayotgan mahumlarga belgilangan namunadagi guvohtonmalar beriladi.

Jinoyat-ijroiya qonun hujjatlarining printsiplari orasida (JIK 6-m.) jazoni ijro etishda differentsiatsiya va individuallashtirishga rioya etish printsiipi muhim o'rin tutadi. Bu printsiipga asosan ozodlikdan mahrum qilingan mahkumlarning axloqan tuzalishini to'g'ri belgilash va jazo samaradorligini oshirish uchun mahkumlarni to'g'ri tasniflash zarurati kelib chiqadi.

2-savol. Ozodlikdan mahrum etish jazoni ijro etuvchi muassasalar tasnifi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 50-moddasiga muvofiq, ozodlikdan mahrum qilish mahkumni jamiyatdan ajratib jazoni ijro etish koloniyasi yoki turmaga joylashtirishdan iboratdir.

Ozodlikdan mahrum qilish olti oydan yigirma yilgacha muddatga beriladi.

Amaldagi Jinoyat kodeksida ozodlikdan mahrum qilishning yana ikki turi alohida jinoiy jazo turi sifatida ajratilgan bular:

uzoq muddatli ozodlikdan mahrum etish (yigirma yildan yigirma besh yilgacha muddatga beriladi) va umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazolaridir.

Ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo ijrosi jazoni ijro etish muassasalari tomonidan amalga oshiriladi.

Qonunda jazoni ijro etish muassasalarining (JIEM) quyidagi turlari ko'rsatilgan (JIK 45-m.):

jazoni ijro etish koloniyalari, shu jumladan davolash huquqi asosidagi koloniyalar;

tarbiya koloniyalari;

turmalar;

mahkumlar uchun ixtisoslashgan kasalxonalar.

Tergov hibsonalari ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan va xo'jalik xizmatiga oid ishlarni bajarish uchun qoldirilgan shaxslarga nisbatan jazoni ijro etish muassasalari vazifasini bajaradi.

Jazoni ijro etish koloniyalari manzil-koloniyalarga, umumiy, qattiq, maxsus tartibli koloniyalarga bo'linadi hamda voyaga yetgan mahkumlarni saqlash uchun mo'ljallangan.

Tarbiya koloniyalari voyaga yetmagan mahkumlarni saqlash uchun mo'ljallangan.

Turmalar voyaga yetgan mahkumlarni saqlash uchun mo'ljallangan.

Jazoni ijro etish koloniyalari o'z navbatida manzil koloniyalari, umumiy tartibli, qattiq tartibli, maxsus tartibli koloniyalarga bo'linadi.

Respublikamiz xududida hozirgi kun ko'rinishidagi dastlabki ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni ijro etish muassasalarining qurilishi o'n to'qqizinchi asrning ikkinchi yarmida boshlandi va yigirmanchi asrlarning birinchi yarmida birmuncha zamonaviylashgan ko'rinishga ega bo'ldi.

Aytish lozimki, hozirgi kunda mamlakatimiz jazoni ijro etish muassasalari faoliyatini rivojlantirish, uni xalqaro huquq normalari va standartlariga moslashtirish, jazo o'tayotgan mahkumlar hayotini ijobiy tomonga o'zgartirish, ayni vaqtda u yerda insonparvarlik tamoyillarini qo'llash borasida ham talaygina tashkiliy ishlar amalga oshirilmoqda.



INNOVATIVE
ACADEMY